

BOSHLANG‘ICH SINIF DARSLIKLARIDA O‘ZBEK TILIGA YANGI PAYDO BO‘LGAN SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI**Jumayev Elmurod Bekpulatovich***Axborot texnologiyalari va menejment universiteti**ATMU dotsenti v.b, fffd (PhD)***Norbo'tayeva Marjona G'olib qizi***Axborot texnologiyalari va menejment universiteti 1-kurs talabasi**Email: shaxriyoxolmurodov80@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilining lug‘at tarkibiga so‘nggi yillarda kirib kelgan yangi so‘zlarning boshlang‘ich sinf darsliklarida qo‘llanish jarayoni, ularning semantika, talaffuz va qo‘llanish xususiyatlari ilmiy jihatdan o‘rganildi. Neologizmlarning matn tarkibida berilishi, o‘qituvchi tomonidan tushuntirish metodlari, o‘quvchi nutqi va tafakkuriga ta’siri tahlil qilib chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yangi so‘zlar-ning izohli, rasmlil va kontekstual shaklda berilishi lug‘at boyligini kengaytiradi, zamonaviy tafakkurni shakllantiradi hamda o‘quv-chilarni raqamli hayot voqeliklariga moslashtiradi.

Kalit so‘zlar: yangi so‘zlar, neologizm, darslik, o‘quvchi nutqi, leksika, zamonaviy ta’lim.

Аннотация: В статье анализируется процесс внедрения новых слов и международных терминов в учебники начальной школы. Рассматриваются особенности их употребления, смысловая адаптация, методика объяснения учащимся и влияние на развитие речи детей. Показано, что использование визуальных средств, контекстных объяснений и словарной работы способствует лучшему усвоению неологизмов младшими школьниками.

Ключевые слова: неологизм, словарный запас, учебник, речь учащихся, современная лексика.

Abstract: This article analyzes the use of newly adopted words and international terms in Uzbek primary school textbooks. Their semantic adaptation, pronunciation, contextual usage, and impact on students’ speech development are examined. The study proves that illustrated explanations, vocabulary exercises, and contextualization help young learners effectively understand and apply modern lexical units in communication.

Keywords: new words, neologism, vocabulary, primary school, speech development, textbook.

Kirish

Globalashuv va axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida har bir tilning lug‘at tarkibi tez sur‘atlarda boyib bormoqda. O‘zbek tilida ham son-sanoqsiz yangi so‘zlar va terminlar paydo bo‘lmoqda: kompyuter, internet, operator, chipta, platforma, smartfon, onlayn, elektron pochta, skaner, navigatsiya, bankomat, karta tizimi va boshqalar.

Ular nafaqat kattalar nutqida, balki bolalar hayotida ham kundalik zaruratga aylanib ulgurgan. Shu sababli, bu so‘zlarning boshlang‘ich sinf darsliklariga kiritilishi tabiiy til taraqqiyoti jarayonining muhim bosqichidir. Boshlang‘ich ta‘lim bolada lug‘at boyligini shakllantirish, fikrni ifodalash, zamonaviy dunyoni anglash uchun poydevor vazifasini bajaradi. Demak, yangi so‘zlar nafaqat lingvistik, balki psixologik va pedagogik ahamiyatga ham ega.

Asosiy qism

1. Darsliklarda yangi so‘zlarning qo‘llanilish shakllari: Boshlang‘ich sinf darsliklarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, yangi so‘zlar asosan quyidagi usullarda beriladi: matn tarkibida tabiiy qo‘llanilish, rasm va diagrammalar bilan tushuntirish, izohli lug‘at ko‘rinishida, topshiriq va savollarda. Masalan 2-sinf “O‘qish” darsligida: “Dadom bankomat orqali pul oldi.” Rasm ostida izoh: Bankomat — bankdan pul olinadigan qurilma. Bu shakl bola uchun eng sodda qabul qilinadigan tushuntirishdir.

2. Yangi so‘zlarning kelib chiqishi va moslashuvi

Aksariyat neologizmlar ingliz tilidan o‘zlashgan:

Inglizcha O‘zbekcha

Computer Kompyuter

Smart phone Smartfon

Ticket Chipta

Scan Skaner

Online Onlayn

Ba‘zilari esa semantik tarjima orqali shakllangan: e-library → elektron kutubxona, digital school → raqamli maktab, e-payment → elektron to‘lov. Neologizmlar o‘zbek tili fonetikasi va imlosiga moslashtirilgan holda qo‘llaniladi.

3. O‘quvchi nutqiga psixolingvistik ta‘siri: Yangi so‘zlarning darslikda bo‘lishi: lug‘at boyligini kengaytiradi, zamonaviy tushunchalarni shakllantiradi, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantiradi, matnni to‘liq anglash imkonini beradi

Tajriba va kuzatuvlarga ko‘ra: 1–2-sinf o‘quvchilarining 64% yangi so‘zlarni rasm asosida tushunadi. 3–4-sinfda bu ko‘rsatkich 72% 4-sinf o‘quvchilarining 58% bu so‘zlarni nutqida qo‘llay oladi. Bu neologizmlarning o‘quvchi tafakkuriga ijtimoiy va intellektual ta‘sirini isbotlaydi.

4. O‘qituvchilarning samarali metodlari: Yangi so‘zlarni o‘rgatishda eng yaxshi natija beradigan metodlar: rasmi tushuntirish, sinonim va tarjima berish, matndan topish, gap tuzish, rol o‘yinlari (real holatdan foydalanish), shaxsiy lug‘at daftarini yuritish. Masalan: Internet – axborot topiladigan ulkan tarmoq. O‘quvchi bilan mashqlar: “Internet” so‘zi bilan gap tuz, matndan top, rasm-ga moslab tushuntir, natijada so‘z xotirada mustahkam o‘rnashadi.

Taklif va mulohazalar:

1. Har bir darslikda “Yangi so‘zlar lug‘ati” majburiy bo‘lishi kerak. Bu bo‘limda so‘z izoh + rasm + misol bilan berilishi o‘quvchi uchun juda qulay.

2. Video, rasm va real predmetlardan foydalanish samarani oshiradi. Ko‘rish orqali qabul qilish 70% to‘liq tushunilishni ta‘minlaydi. Masalan, kompyuter qismlari yoki bankomat ishlashi haqida kichik video.

3. Yangi so‘zlarni qo‘llashga doir nutqiy mashqlar ko‘paytirilishi lozim. 3 ta gap tuzish: rasm asosida hikoya aytish, matndagi izohlarni topish, bu usul o‘quvchini faollashtiradi.

4. Neologizmlarning imlo me‘yorlarini bir xil shaklda berish. Masalan: onlayn / on-layn / onlayin – yagona shakl bo‘lishi zarur.

5. “Mening zamonaviy lug‘atim” loyihasi. O‘quvchi yangi so‘zlarni daftariga yozib boradi: ma‘nosi, rasm, misol gap. Bu metod o‘rganishni qiziqarli va samarali qiladi.

6. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma yaratish. Hozir- cha yagona standart yo‘q. Bu esa dars samarador- ligini kamaytiradi.

Xulosa: Yangi so‘zlarning darsliklarga kiritilishi: o‘quvchining zamonaviy tafakkurini shakllantiradi. Raqamli texnologiyalarni tushunishga yordam beradi, lug‘at boyligini kengaytiradi, nutqni ravonlashtiradi, dars jarayonini hayotga yaqinlashtiradi.

Shu sababli yangi so‘zlar bilan ishlash bo‘yicha yonda- shuvlar tizimli, metodik va bosqichma-bosqich bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyberdiyev A. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasi”. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Rafiqova M. “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi”. – Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasi XTV 1–4-sinf darsliklari. – Toshkent, 2020–2024.
4. Abdiyev S. “Neologizmlar va ularni o‘rgatish yo‘llari”. – Samarqand, 2022.
5. Usmonova H. “Til va jamiyat”. – Toshkent: Universitet, 2019.